

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.Fil/Ped.83.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

XOTAMOVA PARVINA ILXOMOVNA

**INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARI GAP TARKIBIDA POSESSIVLIK
(EGALIK) SINTAKSEMALARINING QIYOSIY – FUNKSIONAL
TADQIQI**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik, tarjimashunoslik

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2023

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on philological sciences**

Xotamova Parvina Ilxomovna

Ingliz va o'zbek tillari gap tarkibida possessivlik (egalik) sintaksemalarining qiyosiy-funksional tadqiqi..... 3

Хотамова Парвина Илхомовна

Сравнительно-типологическое исследование посессивных синтаксем в английском и узбекском языках..... 25

Khotamova Parvina Ilxomovna

Comparative-typological research of possessive syntaxemes in the English and Uzbek languages 49

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works 53

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.Fil/Ped.83.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

XOTAMOVA PARVINA ILXOMOVNA

**INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARI GAP TARKIBIDA POSESSIVLIK
(EGALIK) SINTAKSEMALARINING QIYOSIY – FUNKSIONAL
TADQIQI**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik, tarjimashunoslik

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.2.PhD/Fil1870 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz) Ilmiy kengash veb-sahifasining www.samdhti.uz hamda «Ziyonet» Axborot ta'lim portali www.ziyonet.uz manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: Usmonov O'rol Usmonovich
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar: Xayrullayev Xurshidjon Zayniyevich
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Daniyeva Maysara Djamalovna
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Yetakchi tashkilot: Urganch davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.03/30.12.2019.FiL/Ped.83.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil «11» oktyabr soat 10⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 140104, O'zbekiston, Samarqand, Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel: (99866) 238-29-37; faks: (99878) 210-00-18; e-mail: info@samdhti.uz.

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin 61594 raqami bilan ro'yxatga olingan. Manzil: 140104, O'zbekiston, Samarqand, Bo'stonsaroy ko'chasi, 93-uy. Tel: (99866) 238-29-37.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «27» sentabr kuni tarqatildi.
(2023-yil «26» sentabr da №84 raqamli reyestr bayonnomasi).



I.M.Tuxtasinov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, pedagogika fanlari doktori, professor

G'.Q.Mirsanov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari doktori, dotsent

Sh.S.Safarov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Zamonaviy jahon tilshunosligida an'anaviy sintaksisning bahsli masalalarini tizimli o'rganish, gap tarkibida possessivlik sintaksemalarining qardosh va qardosh bo'lmagan tillar tizimida qiyosiy-funksional tahlil qilish hamda ushbu hodisalarning ontologik mohiyatini aniqlash, ularning tillararo munosabatini o'rganish muammosi tilshunos olimlarining doimiy e'tiborida. Bugungi kun jahon tilshunosligida qardosh bo'lmagan tillar tizimini qiyosiy o'rganish ko'pchilik tadqiqotlarning ob'yekti bo'lib kelmoqda. Aksariyat tillar an'anaviy grammatikalarida gap tarkibida ishtirok etgan sintaktik birliklarni gap bo'laklariga, ya'ni bosh va ikkinchi darajali bo'laklarga ajratib tahlil qilish keng tarqalgan. Ammo, gapning sintaktik tahliliga ushbu yondashuv hozirgi zamon talablariga to'liq javob berolmasligi mazkur tahlilga lingvistik metodlar asosida yangicha yondashuvni taqozo qilmoqda.

Dunyo tilshunosligida possessivlik kategoriyasining keng ko'lamda o'rganilishi ushbu hodisaning sintaktik-semantik tabiatini ochish, gap tarkibida yuzaga keladigan barqaror va o'zgaruvchan belgilarning o'zaro mutanosibligini ko'rsatish imkonini yaratadi. Shuningdek, possessivlikni ifodalovchi sintaktik birliklarning chog'ishtirma tahlili qardosh bo'lmagan ingliz va o'zbek tillari tizimida possessivlikni idrok etish va uni nutqiy faoliyatda ifoda etish darajasini o'rganish uchun tipologik umumiylik va xususiylikni belgilashda muhim ahamiyatga ega. Zero, hozirgi zamon tilshunosligida possessivlikni ifodalovchi sintaktik birliklarning o'rnini hamda ularning boshqa elementlar bilan bog'langan sintaktik aloqalarini aniqlash borasida qiyosiy tadqiqot olib borish masalasida tilshunos olimlar tomonidan til sathlari doirasida bir qator ishlar amalga oshirilgan. Sintaktik birliklarning grammatik sathda kategorial differentsial sintaktik-semantik belgilardan substansiallik va kvalifikativlik doirasida possessiv sintaksemalarning paradigmatic qatorlarini, ularning variantlari va aniqlangan sintaktik aloqalar bazasida boshqa sintaksemalar bilan bog'lanish imkoniyatlarini ochib berish zarurati mavjud.

Hozirgi kunda mamlakatimizda chet tillarni o'rganishga, xususan, ularning frazeologik zahirasining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishga katta ahamiyat berilmoqda. "Globalashuv sharoitida milliy tilimizning sofligini asrash, uning so'z boyligini kengaytirish, turli sohalarda zamonaviy atamalarning o'zbekcha muqobilini yaratish, ulardan bir xilda foydalanishni ta'minlash dolzarb vazifadir"¹. Mustaqillik yillarida yurtimizda ham tilshunoslar tomonidan qardosh va qardosh bo'lmagan tillar tizimini o'rganish borasida ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilib kelinmoqda. Jumladan, keyingi yillarda til birliklarining sintaktik sathda voqelanishini tizimli o'rganish, ularning sintaktik munosabatlarini sintaktik valentlik asosida aniqlash, olmoshlar sintagmatikasi kabi mavzularda bir qator samarali ishlar bajarilgan. Mazkur tadqiqotda ingliz va o'zbek tillaridagi possessiv (egalik) sintaktik birliklarning sintaktik-semantik xususiyatlarini komponentlarga

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2019-yil 21-oktabrdagi o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligining 30 – yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi // Xalq so'zi. - Toshkent, 2019.- 22 oktabr.

va sintaksemalarga ajratib tahlil qilish orqali ochib berish mavzuning asosiy mazmun mohiyatini anglatadi. Shu sababli ingliz va o‘zbek tillari gap tarkibida possessivlik kategoriyasining sintaktik sathda aniq lingvistik tadqiqot metodlari asosida qiyosiy-funksional tadqiq etish mavzuning dolzarbligidan dalolat beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2020-yil 11-noyabrdagi PQ- 4884-son “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2021-yil 25-yanvardagi PQ-4963-son “Xalq ta’limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, shuningdek, mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon tilshunosligida possessivlik kategoriyasi masalasida tilshunoslar bir qator tadqiqotlar olib borganlar. Jumladan, umumiy tilshunoslikda kelishik kategoriyasi doirasida bir qator ilmiy-nazariy izlanishlar mavjud. Evropa olimlaridan H.Sweet, J.O.Curme, C.J.Onions, P.Roberts, C.E.Bazel va G.Palmer² kabilar mazkur mavzu yuzasidan salmoqli ishlarni amalga oshirgan bo‘lsa, Rossiya tilshunoslaridan B.A.Ilyish, I.P.Ivanova, L.P.Chaxoyan, V.G.Vetitskiy, L.S.Barxydarov, M.D.Rezvetsova, O.V.Afanaseva, T.S.Samoxina, G.N.Voronsova, V.V.Burlakova, S.Smirnitskiy³ kabilar ingliz tilidagi kelishiklar doirasida tadqiqotlarni amalga oshirgan.

² Sweet H.A. A new English Grammar, Logical and Historical. Part. I. – Oxford, 2006. – 500 p.; Curme G.O. A Grammar of the English Language. v I, 2-3. – London – New-York, 2006. – 240 p.; Onions C.J. An Advanced English syntax. – London, 1965, 267 p.; Roberts P. English Syntax: A programmed instruction to Transformational Grammar. New-York: Hazcourt, Brace and world, 2008. – 524 p.; Bazell C.E. Syntactic relations and Linguistic typology. Longman, 1956. – 148 p.; Palmer H.E. A Grammar of Spoken English. Cambridge, 1927. – 384 p.

³ Ilyish B.A. The Structure of Modern English. – Ленинград: Просвещение, 1974. – 378 с.; Иванова И.П., Чахоян Л.П. История английского языка. – Москва: Высшая школа, 1976. – 319 с.; Ветицкий В.Г. Занимательное языкознание. – Москва: Высшая школа, 1966. – 232 с.; Бархударов Л.С. Очерки по морфологии современного английского языка. – Москва: Высшая школа, 1975. – 156 с.; Резвецова М.Д., Афанасьева О.В., Самохина Т.С. Практикум по сравнительной типологии английского и русского языков. – Москва: Просвещение, 1989. – 160 с.; Воронцова Г.Н. Об именном форманте `S в современном английском языке// Иностраные языки в школе. 1948. № 4-9. – С. 3-14.; Бурлакова В.В. Подчинительные группы субстантивного состава в современном английском языке// Исследования структуры английского языка. – Ижевск, 1978. – С. 3-7.; Смирницкий А.И. Синтаксис английского языка. – Москва, 1957. – 286 с.

O‘zbek tilida kelishiklar bo‘yicha A.N.Borovkov, A.Islyamov, A.N.Kononov, A.Choriev, O.Abdullaeva, A.R.Rustamov, U.Tursunov, J.Muxtarov, Sh.Rahmatullaev, M.Mirzaev, S.Usmonov, I.Rasulov, Q.Karimov, U.Usmonov, Sh.Ashurovlar⁴ salmoqli fikrlar bayon etishgan.

V.N.Jigadlo, I.P.Ivanova, L.L.Iofiklar otlarning kelishik kategoriyasidan qaratqich kelishigini ikkiga bo‘lib o‘rganishni tavsiya qiladi: a) tobe qaratqich kelishigi; b) tobe bo‘lmagan qaratqich kelishigi.

L.S.Barxudarov qaratqich kelishigini sintaktik sathda Possesive Genetive, Subjestic Genetive, Objective Genetive, Adverbial Genetive, Equational Genetive, Genetive of destination kabi turlarga ajratib o‘rgangan.

E.V.Sevortyan esa yoqut tilida mavjud bo‘lgan vosita kelishigi haqida hozirga qadar etimologik sharh berish imkoniyati yo‘qligini aytadi. A.N.Borovkov “Ushbu kelishik (vosita kelishigi) bilan vositali ob‘yektни bildiruvchi tushum kelishigi o‘rtasida semantik yaqinlik borligini⁵” taxmin qiladi.

Kelishiklar masalasida o‘zbek tili grammatikasida S.M.Mutallibov XI asr va hozirgi o‘zbek tilida kelishiklarni qiyosiy o‘rgangan va ularning shakl va vazifalaridagi variantlarini aniqlagan. Shuningdek, kelishiklar soni chegaralanganligini ta’kidlagan⁶. Biroq yuqorida o‘rganilgan tadqiqotlarda egalikni ifodalagan sintaktik unsurlarning semantikasi va sintaksem tahlili haqida batafsil fikrlar bayon etilmagan.

Bizning ishimizda gap qurilmasini komponentlarga va sintaksemalarga ajratib tadqiq qilish jarayonida sintaktik tahlilni A.M.Muxin, A.M.Akbulatova, O‘.Usmonov, Z.J.Muxtarov, R.Kiyamov, Sh.Ashurov, D.T.Kubeysinova, V.B.Aristova, M.R.Jollibekova, M.S.Kayumova, M.M.Oblokulovala, R.M.Asadov, N.J.Suleymanova, G.Boltakulovala, O.Qalandarovlarning ilmiy tadqiqotlariga tayangan holda amalga oshirdik. Bunda ingliz va o‘zbek tillaridagi possessivlikni ifodalovchi sintaktik birliklarning gapdagi distributsiyasi, sintaktik vazifasi va differentsial sintaktik-semantik belgilari ochib berildi. Ingliz tili gap tarkibida substansial possessiv sintaksemaning paradigmatic qatorida ushbu sintaksemalarning to‘qqizta, o‘zbek tilida esa o‘n yettita variantlari tahlil qilindi. Aniqlangan sintaksemalarning ingliz va o‘zbek tillarida ifodalanishi qiyoslanganda sof possessiv sintaksemani ifodalashda har ikkala tilda ham jonli otlar, narsa

⁴ Боровков А.К. Из материалов для истории узбекского языка // Тюркологический сборник, I, Москва-Ленинград, 1951. – С. 3-12.; Ислямов А. Употребление падежей в языке древнетюркских памятников // Ученые записки. – Семипалатинск, 1957. – С. 244-259.; Кононов А.Н. Грамматика современного узбекского литературного языка. – Ленинград: Наука, 1960. – 446 с.; Чориев А. Синтаксико-семантические признаки родительного падежа в узбекском и английском языках. – Ташкент: Фан, 1990. – 92 с.; Abdullaeva O. O‘zbek tilida aniqlik va noaniqlik kategoriyasi va belgisiz kelishiklar masalasi // O‘zbek tili tarixi masalalari. – Toshkent: Fan, 1977. – B.156-158.; Rustamov A.R. Navoiy tilining fonetik va morfologik xususiyatlari: Filol. fan. dok. diss. – Toshkent, 1966. – 278 b.; Tursunov U., Muxtarov J., Rahmatullaev SH. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent, 1965. – 236 b.; Mirzaev M., Usmonov S., Rasulov I. O‘zbek tili. – Toshkent, 1966. – 230 b.; Karimov Q. Vosita kelishigi // O‘zbek tili tarixi masalalari. – Tashkent: Fan, 1977. – B. 47-54.; Usmanov U.U., Ashurov SH.S. Ingliz tili nazariy grammatikasi (nazariy grammatikadan amaliyot). – Samarqand, 2012. – 88 b.

⁵ Жигadlo В.Н., Иванова И.П., Иофик Л.Л. Современный английский язык. Теоретический курс грамматики. – Москва: Лит. на иностр. языках, 1956. – 356 с.; Бархударов Л.С. Структура простого предложения в современном английском языке. – Москва, 1966. – 186 с.; Севортян Э.В. Категория падежа. ИСГТЯ, II, Морфология. – Москва, 226 с.; Боровков А.К. Из материалов для истории узбекского языка // Тюркологический сборник, I, Москва-Ленинград, 1951 – С. 3-12.

⁶ Mutallibov S.M. Morfologiya va leksika tarixidan qisqacha ocherk. – Toshkent: Fanlar akademiyasi nashriyoti, 1959. – 240 b.

predmetni, o‘rinni yoki makonni, paytni yoki vaqtni hamda mavhum tushunchalarni ifodalovchi otlar qaratqich kelishigida berilishi aniqlandi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar instituti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq, “Gapning tashqi va ichki qurilmasi muammolari va ularni qiyosiy tipologiyaga tatbiq etish” mavzusidagi loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ingliz va o‘zbek tillari gap tarkibida possessivlikni ifodalovchi sintaktik birliklar, ularning variantlarini qiyosiy-funksional tahlil qilish hamda ularning izomorflik va allomorflik xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

- ingliz va o‘zbek tillarida kelishiklar masalasini, ularning tarixiy taraqqiyotini va tadqiqot ob’ekti sifatida bajarilgan ishlarni atroflicha o‘rganish;

- ingliz va o‘zbek tillarida possessivlikni ifodalovchi sintaktik birliklarning gap tarkibida sintaktik o‘rnini aniqlash va ularning bajargan vazifasini o‘rganish;

- gap qurilmasida ishtirok etgan possessiv sintaksemalarni kategorial differentsial sintaktik-semantik belgilardan substansiallik va kvalifikativlik doirasida qiyosiy-funksional tahlil qilish hamda ularning variantlarini bir-biridan farqlash tamoyillarini ishlab chiqish;

- aniqlangan possessiv sintaksemalarning paradigmaticasini ingliz va o‘zbek tillarida qiyosiy ishlab chiqish va ularning izomorflik va allomorflik xususiyatlarini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida ingliz, Amerika va o‘zbek adiblari tomonidan yaratilgan badiiy adabiyotlardan yig‘ilgan misollar tarkibidagi possessiv sintaksemalarning va ular mansub bo‘lgan paradigmatic qatorlarning sintaktik sathdagi qiyosiy tahlili olingan.

Tadqiqotning predmetini ingliz va o‘zbek tillari gap tarkibida qaratqich kelishigi va boshqa sintaktik birliklar yordamida ifodalangan possessiv sintaksemalar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada transformatsiya metodining tushirib qoldirish, qo‘shimcha qilish, distributiv, komponentlarga va sintaksemalarga ajratib tahlil qilish, qiyosiy tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

ingliz va o‘zbek tillarida kelishiklar muammosi o‘rganilgan, gapning an’anaviy sintaktik tahlilida tadqiqotchilar nazaridan chetta qolgan kamchiliklar aniqlanib, ular to‘ldirilgan;

possessivlikning ifodalanish usullari atroflicha izohlangan hamda ularning gap tarkibida sintaktik o‘rni va vazifasi aniqlanib, boshqa komponentlar bilan sintaktik aloqalari ochib berilgan;

gap qurilmasida ishtirok etgan possessiv sintaksemalar kategorial differentsial sintaktik-semantik belgilardan substansiallik va kvalifikativlik doirasida qiyosiy-funksional tahlil qilish natijasida substansial possessiv, kvalifikativ possessiv hamda indefinit possessiv sintaksemalarni bir-biridan farqlash tamoyillari ishlab chiqilgan;

possessiv sintaksemalarning ingliz va o‘zbek tillaridagi paradigmaticasi va ularning variantlarida izomorflik va allomorflik xususiyatlariga ko‘ra

substansiallik qamrovida to‘qqiz turdagi o‘xshash va sakkiz turdagi farqli, kvalifikativlik doirasida oltita o‘xshash va ikkita farqli sintaksemalar aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

posessiv sintaksemalarning ingliz va o‘zbek tillaridagi paradigmaticasi va ularning variantlarida izomorflik va allomorflik xususiyatlari aniqlangan;

ingliz filologiyasi va tarjimashunoslik fakulteti yuqori kurs talabalari hamda magistrantlari uchun nazariy grammatikaning dolzarb muammolari, funktsional sintaksis bo‘yicha ma’lumotlar ishlab chiqilgan;

gapning tashqi va ichki qurilmalari tushunchasi, ularni chog‘ishtirma tilshunoslikka tatbiq etish tamoyillari hamda ilmiy-tadqiqot ishlarida foydalanish bo‘yicha ko‘rsatmalar yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi ishda qo‘llangan yondashuv va usullarning zamonaviy nazariyalarga mosligi hamda metodologik jihatdan asoslanganligi, tadqiq materialining ishonchli manbalardan olinganligi, muammoning aniq shakllantirilganligi, xulosalarning qat’iyiligi, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalar tatbig‘ining vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati qardosh bo‘lmagan tillar gap tarkibida kategorial belgilardan substansiallik va kvalifikativlik doirasida posessiv sintaksemaning paradigmatic qatorini aniqlash usullari hamda posessiv sintaksemani ifodalovchi birliklarning sintaktik o‘rni va boshqa sintaktik birliklar yoki komponentlar bilan bog‘langan sintaktik aloqalari modellashtirish usullari usuli yordamida isbotlanganligi va ilmiy asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati gap tarkibida lingvistik metodlar yordamida tahlil qilishni talabalar va magistrantlar foydalanishi ko‘rsatilib hamda ularga “Nazariy va amaliy grammatika”, “Lingvistik tahlil metodlari”, “Tarjima nazariyasi”, “Chog‘ishtirma tilshunoslik” kabi fanlardan maxsus kurs va seminar mashg‘ulotlarida hamda mazkur soha bo‘yicha bitiruv malakaviy ishlar, magistrlik dissertatsiya ishlarida foydalanishi mumkin, undan tashqari o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar, darsliklar yaratish jarayonida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ingliz va o‘zbek tillari gap tarkibida posessivlik (egalikni) ifodalovchi komponentlarni lingvistik metodlar asosida qiyosiy tadqiq etish jarayonida erishilgan ilmiy natijalar asosida:

ingliz va o‘zbek tillari gap tarkibida egalik kategoriyasini tadqiq etishda lingvistik tadqiqot metodlari asosida kategorial differentsial sintaktik-semantik belgilardan substansial va kvalifikativ sintaksemalar doirasida posessiv sintaksemaning variantlari aniqlandi va erishilgan natijalar Evropa Ittifoqining Erasmus+ dasturi doirasida amalga oshirilgan 561624-EPP-1-2015-UK-EPPKA2-CBHE-SP-ERASMUS+CBHE IMEP: “O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimi jarayonlarini modernizatsiyalash va xalqarolashtirish” nomli innovatsion tadqiqotlar loyihasi doirasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2022-yil 21-iyuldagi №2060/30.02.01 ma’lumotnomasi). Natijada,

mazkur loyiha doirasida yaratilgan o'quv qo'llanmalarini ishlab chiqishda yangi yondashuvlar sifatida sintaktik-semantik belgilarini aniqlashga erishilgan;

ingliz va o'zbek tillari gap tarkibida egalik kategoriyasini tadqiq etishda erishilgan natijalardan Evropa Ittifoqining 2016-2018-yillarga mo'ljallangan Erasmus+ dasturi doirasida amalga oshirilgan 561624-EPP-1-2015-UK-EPPKA2-CBHE-SP-ERASMUS+CBHE IMEP: "O'zbekistonda oliy ta'lim tizimi jarayonlarini modernizatsiyalash va xalqarolashtirish" nomli innovatsion tadqiqotlar loyihasi doirasida kompyuter lingvistikasida tatbiq etiladigan avtomat tarjima dasturlarida adekvat tarjimaga erishish, yozma matnni muvofiqlashtirish va idrok qilish algoritmini yaratishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Samarqand davlat chet tillar institutining 2022 yil 06 iyuldagi 1979/30.02.01-son ma'lumotnomasi). Tadqiqot natijalarini joriy qilish mazkur loyiha doirasida yaratilgan o'quv qo'llanmalarini ishlab chiqishda va o'quv jarayonlarini tashkil etishga xizmat qilgan;

sintaktik sathda possessivlikni aniqlashda qo'llanilgan metodlardan Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan I-204-4-5 "Ingliz tili mutaxassislik predmetlaridan axborot-kommunikatsion texnologiyalari asosida virtual resurslar yaratish va o'quv jarayoniga joriy etish" nomli innovatsion tadqiqot loyihasida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Samarqand davlat chet tillar institutining 2022 yil 26 iyuldagi 2108/30.02.01-son ma'lumotnomasi). Natijada mazkur loyiha doirasida o'qituvchilar kasbiy mahoratini oshirish ta'lim tizimini takomillashtirish maqsadida yaratilgan uslubiy qo'llanmalar va o'quv dasturlarini yaratishga xizmat qilgan;

tadqiqotda aniqlangan kategorial va nokategorial sintaktik-semantik belgilardan substansial va kvalifikativ sintaksemlar variantlari ifodalagan ma'nolar bo'yicha taklif va tavsiyalardan O'zbekiston Respublikasi Samarqand viloyati teleradiokompaniyasida 2022-yil 10-iyul kuni efirga uzatilgan "Najot ta'limda" ko'rsatuvining ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy Teleradiokompaniyasining 2022-yil 27-iyuldagi 01-12/270-son ma'lumotnomasi). Natijada rasmiy va norasmiy matnlarni ingliz va o'zbek tillarida ifoda qilishda to'liq muqobillikka erishishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot ishining natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 12 ta ilmiy nashr qilingan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiyasi komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, 3 ta xorijiy ilmiy jurnalda, 2 ta xorijiy konferensiya to'plamlarida va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlari to'plamlarida e'lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta asosiy bob, boblar bo'yicha xulosalar, umumiy xulosalar, foydalanilgan nazariy va badiiy adabiyotlar hamda internetdan olingan manbalar ro'yxati, ishda foydalanilgan shartli belgilar va qisqartmalar izohidan iborat bo'lib, umumiy hajmi 127 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish. Dissertatsiyaning kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning maqsadi va vazifalari, ob'ekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr qilingan ishlar va ishning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Tilshunoslikda egalik kategoriyasining o'rganilishi”** deb nomlanib, ingliz va o'zbek tillarida kelishiklar muammosining talqin qilinishi hamda qardosh bo'lmagan tillar tizimida egalik kategoriyasining ifodalanishi masalalariga bag'ishlangan. Shuningdek, possessivlik kategoriyasini tadqiq qilishda foydalanilgan lingvistik metodlar bayon etilgan.

Hind-Ovropa tillar oilasiga mansub bo'lgan tillar tizimida kelishik kategoriyasi tilshunoslar o'rtasida bahstlab masalalardan biri hisoblanadi. Ushbu tillarda kelishiklarni tasniflashda nomutanosiblik kuzatiladi. Masalan, rus, ukrain, chex, bulg'or, german hamda ingliz tillar tizimida kelishiklar soni ikkitadan yettitagacha, eston tilida o'n to'rtta, fin tilida o'n beshta, venger tilida yigirma ikkita, dog'iston tilida ellik to'rttagacha turlari farqlanganligining guvohi bo'lamiz.

Jumladan, kelishik kategoriyasining tarixiy taraqqiyotiga e'tibor berilganda, qadimgi ingliz davrida, B.A.Ilishning tasnificha, otlarda “nominative”, “genetive”, “dative”, “instrumental dative”, “accusative” kabi kelishik turlari mavjud bo'lganligi e'tirof etilsa⁷, o'rta ingliz davrida otlarda “common case”, “genetive case”, kishilik olmoshlarida “nominative and objective” kelishiklar⁸, yangi ingliz davrida ham common and genetive (bosh va qaratqich) kelishiklar saqlangan; kishilik olmoshlarida XVI-asrga kelib, nominativ kelishikdagi *ye* va ob'yektiv kelishikdagi *you* shakllari o'rtasidagi farq yo'qola boshladi⁹.

I.P.Ivanova, L.P.Chaxoyanlarning fikricha, qadimgi ingliz davrida, umuman german tillarida o'tning to'rtta kelishikdan iborat paradigmikasi mavjud bo'lgan: (“именительный, родительный, дательный, винительный”); o'rta ingliz davrida uchta kelishik (“именительный, родительный, дательный”) saqlangan, XV asrga kelib ikkita kelishik shakli qoladi¹⁰. Kishilik olmoshlari guruhida to'rtta, ko'rsatish va so'roq olmoshlarida beshta (“именительный, родительный, дательный, винительный, творительный”) kelishik shakllari mavjud bo'lgan¹¹. O'sha davrda kishilik olmoshlarining qaratqich kelishik shaklidan egalik olmoshlari vujudga keladi.

Yuqorida qayd qilinganlardan ma'lumki, ingliz tilida kelishik kategoriyasi masalasida tilshunoslar o'rtasida bir to'xtamga kelinmagan. Bundan tashqari, inglizshunos olimlardan H.Sweet “vocative, accusative and genetive” kelishiklarni ajratgan¹², J.O.Curme “nominative, accusative, dative and genetive” kelishiklarni

⁷ Plyish B.A. History of the English Language. Ленинград, “Просвещение”, 1972. – С. 85-86.

⁸ O'sha kitob, С. 186-187.

⁹ O'sha kitob, С. 275.

¹⁰ Иванова И.П., Чахоян Л.П. История английского языка. – Москва: “Высшая школа”, 1976. – С. 104-108.

¹¹ O'sha kitob, С. 112-115.

¹² Sweet H.A. A new English Grammar, Logical and Historical. Part. I. – Oxford, 2006. – P. 117.

ta'kidlagan¹³, J.Fernald esa "nominative, possessive and objective cases"¹⁴ turlarini farqlagan.

Mana shu faktlardan ma'lumki, ingliz tili grammatik tizimiga oid kelishik kategoriyasi hamon o'z yechimini to'liq topmagan. XXI asrga oid ingliz tili amaliy va nazariy grammatikalarida "common case, possessive case or genitive case" kabilar e'tirof etilgan¹⁵. V.N.Jigadlo, I.P.Ivanova, L.L.Iofiklar otlarning kelishik kategoriyasidan qaratqich kelishigini ikkiga bo'lib o'rganishni tavsiya qiladi: a) tobe qaratqich kelishigi; b) tobe bo'lmagan qaratqich kelishigi¹⁶. Ingliz tili ot so'z turkumida kelishik kategoriyasi haqida O.U.Usmonov, R.A.Nosirova, D.T.Kubeysinova quyidagicha ta'kidlashadi: "agar of predlogini ingliz tilida qaratqich kelishigini ifodalovchi marker deb hisoblasak, boshqa predloglar yordamida o'n beshtadan ortiq kelishiklarni qayd qilish mumkin:

In the room – lokativ adessiv, *to the room* – lokativ allativ, *from the room* – lokativ ablativ, *via Samarkand* – lokativ translativ, *with a pen* – instrumental, *with John* – sotsiativ va hokazolar¹⁷".

Tilshunoslikda har bir kelishik masalasi mustaqil ob'ekt sifatida tarixiy jihatdan kam o'rganilgan. Q.Karimovning ta'kidlashicha, "Grammatik adabiyotlarda vosita kelishigi "орудный, творительный, инструментальный, инструктивный, орудивный, instrumentalis, совместно-орудный, творительно-соединительный, временной, комитативно-инструментальный падеж" kabi terminlar bilan ataladi. Bajargan vazifasiga ko'ra biz bu kelishikni vosita kelishigi deb atadik¹⁸".

XI asr yodgorliklari tilida bu kelishik o'zining asosiy funksiyasidan tashqari yana qator funksiyalarni bajarishi, so'nggi davr yodgorliklarida esa iste'mol doirasining torayib borishi, ayrim funksiyalarining sekin-asta boshqa grammatik kategoriyalarga o'tishi va nihoyat, keyingi davrlarda bu kelishikning mavqei yo'qola borib, uning funksiyasi boshqa vositalar orqali ifodalanishi X-XI asrlar shu kelishikning ishlatilgan davri bo'lganligidan darak beradi.

Bu borada A.N.Borovkov "Ushbu kelishik bilan vositali ob'ektni bildiruvchi tushum kelishigi o'rtasida semantik yaqinlik borligini¹⁹" taxmin qiladi. E.V.Sevortyan esa yoqut tilida mavjud bo'lgan vosita kelishigi haqida hozirga qadar etimologik sharh berish imkoniyati yo'qligini aytadi²⁰.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, bu kelishik genezisiga doir masala hozirgacha hal qilingan emas. A.Islyamov bu vosita kelishigining ifodalanishi *-n*, *-in*, *-ын*, *-un* affikslari yordamida beriladi²¹, degan fikrni olg'a suradi.

¹³ Fernald T. English Grammar Simplified. – New-York, 1963. – С. 141.

¹⁴ Curme G.O. A Grammar of the English Language, vol. 2, 1931. – С. 92.

¹⁵ Slabodkina N.A. Abduraimova B.Yu., Rustamova Z.H., Tukliyeva G.N. A Practical English Grammar. Tashkent, 2007. – С. 9.; Quirk R., Greenbaum S., Leech G., Svartvik J. A University Grammar of English. – Moscow; Vyssaya skola, 1982. – С. 89.

¹⁶ Жигадло В.Н., Иванова И.П., Иофик Л.Л. Современный английский язык. Теоретический курс грамматики. – Москва: Лит. на иностр. языках, 1956 – С. 32.

¹⁷ Usmanov U.U., Nosirova R.A., Kubeysinova D.T. Actual Problems of English Theoretical Grammar (Training appliances for Higher Educational Establishments). – Samarkand, 2015. – P. 14.

¹⁸ Каримов Қ. Восита келишиги // Ўзбек тили тарихи масалалари. – Ташкент: Фан, 1977. – Б. 47.

¹⁹ Боровков А.К. Из материалов для истории узбекского языка // Тюркологический сборник, I, Москва-Ленинград, 1951. – С. 4.

²⁰ Севортян Э.В. Категория падежа. ИСГТЯ, II, Морфология. – Москва: С. 58-60.

²¹ Ислямов А. Употребление падежей в языке древнетюркских памятников // Ученые записки. – Семипалатинск, 1957. – С. 244-246.

Kelishiklar masalasida o‘zbek tili grammatikasiga e‘tibor berilganda, S.M.Mutallibovning ta’kidlashicha, otlarning gapda tutgan o‘rni, bajargan funksiyasi, boshqa so‘zlarga bo‘lgan turli xil sintaktik munosabati XI asr tilida hozirgi tilda qo‘llangani kabi har xil grammatik formalar bilan ifodalangan. Lekin u davr tilidagi har bir kelishik qo‘shimchasi hozirgi kelishik qo‘shimchalari singari aniq formalar bilangina cheklanmaydi, har bir kelishik qo‘shimchasi deyarli bir necha forma va variantlarda uchraydi. Masalan: tushum kelishigi u davr tilida - *ni yog‘ochni, uch* yoki *-ug‘, -ig‘, -in, -n, -ig* kabi affikslari bilan ifodalangan.

Jo‘nalish kelishigi *-ka, -qa, -qo* tarzida ifodalangan, biroq *-g‘a, -ga* variantlari uchramaydi.

Qaratqich kelishigi:

1) qaratqich va qaralmishlarning har ikkisi ham ot bilan ifodalanganda – *Biliklik kishilar kishisi bo‘lur*.

2) Qaratqich ot, qaralmish sifat bilan ifodalanganda. *Qilurman mu+ning shukri yuz ming qata*.

-nung qo‘shimchasi bilan: *kim+nung o‘g‘li*

-ini, -in bilan; *ato+sin, bog‘+in*.

Chiqish kelishigi *-dan, -tan, -din, -tin* kabilar bilan ifodalangan.

O‘rin-payt kelishigi *-da, -ta* qo‘shimchalari yordamida berilgan²².

O.Abdullaeva belgisiz kelishiklar haqida fikr yuritib, o‘zbek tilida bosh kelishikdagi so‘zlar gapda ega, kesim vazifalarini o‘tash bilan birga vositasiz to‘ldiruvchi va aniqlovchi vazifalarida ham qo‘llanishini²³ ta’kidlagan. Mana shunday hollardagi otlarni A.N.Kononov²⁴, A.R.Rustamov²⁵ bosh kelishik formasi desa, U.Tursunov, J.Muxtarov, Sh.Rahmatullaev, M.Mirzaev, S.Usmonov, I.Rasulovlar tushum va qaratqich kelishigining belgisiz formasi²⁶, deb ataydilar. Bizningcha, birinchi fikr to‘g‘ri. Chunki o‘zbek tilida agar biror so‘z gapda vositasiz to‘ldiruvchi bo‘lib kelsa-yu, unda tushum kelishigining affiksi bo‘lmasa, tushum kelishigi affiksini qo‘shgan paytda uning grammatik ma’nosi o‘zgarsa, ya’ni shu ot noaniq holatdan aniq holatga o‘tsa, uning formasini bosh kelishik deb qarashga to‘g‘ri keladi.

Tilshunoslikda egalik kategoriyasi olimlar o‘rtasida munozarali masalalardan biri hisoblanadi. Ayrim tilshunoslar egalik kategoriyasini ta’riflaganda, uni ot so‘z turkumi qamrovida kuzatib quyidagicha fikr bildiradi: “Otlarda predmet yoki predmetlik tushunchasining uch shaxsdan biriga (ba’zan predmetga) taalluqli ekanligini ko‘rsatuvchi umumiy ma’nolar va bu ma’nolarni ifoda etuvchi shakllar tizimiga egalik kategoriyasi deyiladi”²⁷.

²² Mutallibov S.M. Морфология в лексика тарихидан қисқача очерк. – Тошкент: Фанлар академияси, 1959. – Б. 36-41.

²³ Абдуллаева О. Ўзбек тилида аниқлик ва ноаниқлик категорияси ва белгисиз келишиқлар масаласи // Ўзбек тили тарихи масалалари. – Тошкент: Фан, 1977. – Б.157.

²⁴ Кононов А.Н. Современный узбекский литературный язык. – Москва, 1966. – С. 89-90.

²⁵ Рустамов А.Р. Навоий тилининг фонетик ва морфологик хусусиятлари: Филол. фан. док. дисс. – Тошкент, 1966. – Б. 117-118.

²⁶ Турсунов У., Мухтаров Ж., Рахматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент, 1965. – Б. 16-19.; Мирзаев М., Усмонов С., Расулов И. Ўзбек тили. – Тошкент, 1966. – Б. 58.

²⁷ <https://www.ruspeasch.com/Learning/14676/>.

Boshqalari esa “egalik kategoriyasi otlarning qaratqich kelishigini ifodalovchi affikslar yordamida aniqlanmish va aniqlovchi vazifalarida kelgan otlar tarkibida ifodalanishini kuzatish mumkin”²⁸, deb ta’kidlashadi.

Umuman olganda, egalik kategoriyasi tilning morfologik sathida yoki sintaktik sathida qaralishi haqida fikr bildirilmasdan, egalik kategoriyasi grammatik kategoriya deb e’tirof etiladi. O‘zbek tili tarixiga e’tibor berilganda, otlarda egalik XI asr yozma yodgorliklarida hozirgi tildagi kabi ba’zan o‘zi ayrim holda, ba’zan affikslar bilan birga qo‘llanilishi uchraydi.

Yovuzka yuz ursa yuzi suvlanur (Qutadg‘u bilik, 268).

Bu misolda yuz so‘zi ikki erda va ikki formada: yuz va yuzi formalarida qo‘llangan. Bu misoldagi yuz so‘zi ayrim funktsiya bajaruvchi qo‘yidagi bo‘lakka ajraladi: biri yuz so‘zi predmetning nomini bildiradi, ikkinchisi *-i* affiksi bilan bu predmet egasini, ya’ni yuzning biror kishiga tegishli ekanini anglatadi. Bu affiks lingvistikada egalik affiksi deb ataladi. Egalik affiksi predmetga uch shaxsdan biri ega ekanini ko‘rsatadi va ular uch xildir. Mazkur misoldagi *i* affiksi uchinchi shaxs ekanini ko‘rsatadi. Oxirgi unlilar bilan bitgan so‘zlarda III shaxsni ifodalovchi affiks – *si* shaklida qo‘shiladi.

Birinchi shaxs egalik affiksi - *um*, *-im* ikkinchi shaxs egalik affiksi *-ing*, uchinchi shaxsda egalik affiksi *-i* yordamida ifodalanadi²⁹.

Ingliz tili misolida egalik kategoriyasi asosan qaratqich kelishigi asosida kuzatiladi. A.Chorievning fikricha, egalikni ifodalovchi leksik birliklar gap tarkibida tobe komponent o‘rnida –*s* shakli yordamida ifodalanadi³⁰. O‘zbek tilida aniqlovchini ifodalagan leksik birlik qaratqich kelishik shakli *-ning* yordamida va aniqlanmish yoki tayanch komponentga, qaysi shaxsda kelmasin, shaxsni anglatuvchi affikslar qo‘shilishi bilan shakllanadi.

Masalan: *sister’s husband- opamning turmush o‘rtog‘i*.

Ingliz tili gap strukturasi qaratqich kelishigida kelgan leksik birlik turlicha sintaktik o‘rinlarda kelishi mumkin:

1) Tobe komponentdan oldin: *a hard day’s work*.

2) Tayanch komponentdan oldin. Bunday holatda egalik qurilmasi tobe komponent o‘rnida kelib, tayanch komponent o‘rtasida sifat, sanoq va tartib sonlar, ravish, hozirgi va o‘tgan zamon sifatdoshlar, *own*, *whole* so‘zlari hamda o‘rin va paytni ifodalovchi leksik birliklar kelishi mumkin: *the Gadfly’s cold finger’s Martin’s glorious sleep*; *Bebel’s last speech*; *Charles Butler’s whole life*; *A man’s own son*; *Maria’s two cows*; *Martin’s first thought*; *The Jack, colonel’s smiling face*; *Martin’s sunburnt neck*; *Mabel’s handmade straw case*; *Gemma’s old school friends*; *Hurstwood’s Brooklyn venture* va boshqalar.

3) Tayanch komponentdan keyin ifodalangan leksik birlik fe’ldan yasalgan ot yoki gerundiy kabilar yordamida beriladi.

Young Mako’s argument on nationality; *Drouet’s advice about going on the stage*; *the Morses’ invitation to dinner*.

²⁸ <http://www.syntagma.h1.ru/article46.htm>.

²⁹ Муталлибов С.М. Морфология ва лексика тарихидан қисқача очерк. Фанлар академияси нашриёти. Тошкент, 1959. – С. 42-43.

³⁰ Чориев А. Синтаксико-семантические признаки родительного падежа в узбекском и английском языках. – Ташкент: Фан, 1990. – С. 29.

Egalik qurilmasi gap tarkibida tayanch komponentsiz ham ishtirok etishi mumkin. Bunday holatlarda tayanch komponent ellipsis hodisasi bilan namoyon bo‘ladi.

Ingliz tilida *sifat, son, ravish, sifatdosh, modal so‘z* kabilar tayanch komponent o‘rnida ham, egalik kategoriyasiga tobe komponent o‘rnida ham uchramaydi. Ammo noaniq olmoshlar *somebody’s, anyone’s*, umumlashgan kishilik olmoshi *one’s*, ajratuvchi olmoshlar *other’s, another’s* kabilar uchraydi.

O‘zbek tili misolida egalik kategoriyasini shakllantirishda leksik birliklarga qaratqich kelishigini ifodalovchi *-ning* affiksi hamda unga *-dir,- dek,- gina,- ga* kabi morfemalar ham qo‘shilib kelishi mumkin:

Kimningdir sharpasi; seningdek odamlar; meningcha; uylarninggina.

Shuningdek, o‘zbek tili misolida qaratqich kelishigida berilgan sintaktik birlikning tayanch komponenti relyativ-egalik affiksi yordamida ifodalanishi mumkin: *komitetning bo‘limlari*; birinchi yoki ikkinchi tobe komponent bosh kelishikda berilishi mumkin: *boylar yurtning otalari emish!*

Gap tarkibida qaratqich kelishigida kelgan egalik kategoriyasini ifodalovchi sintaktik birliklarni boshqa komponentlar bilan bog‘langan sintaktik aloqalar bazasida bir valentli yoki ikki valentli komponentlarga ajratish mumkin.

Jahon tilshunosligida gapning sintaktik tahlili borasida turlicha yondashuvlar guvohi bo‘lish mumkin. Bir qator amaliy va nazariy grammatikalar qamrovida gap strukturasi sintaktik tahliliga e‘tibor qaratilganda, ular gap tarkibida ishtirok etgan sintaktik birliklarni bosh bo‘laklar va ikkinchi darajali bo‘laklarga ajratib tahlil qilishni e‘tirof etadilar³¹.

Gap tarkibidagi sintaktik birliklarni sintaksemalarga ajratib tahlil qilishda, avvalambor, kategorial differentsial sintaktik- semantik belgilar aniqlanib, ular asosida ushbu birliklarning gap tarkibida tutgan o‘rniga qarab nokategorial belgilar ochib beriladi. Sintaksemalarni aniqlashda tahlil qilinayotgan gapdan tashqari, boshqa gap tarkibidagi bir xil o‘rinda kelgan sintaktik birliklarning funktsional maqomi ham qiyoslanadi. Bu o‘rinda prof. A.M.Muxinning quyidagi fikrini eslatish lozim: “Gap strukturasi komponentlarga ajratib, ya’ni sintaktik birliklarning sintaktik aloqalarini aniqlash hamda ularning bir-biridan farqini ochib tahlil qilish struktural sintaksisning ob’yekti hisoblanadi. Gapdagi sintaktik birliklarni paradigmatic yo‘nalishda sintaksemalarga ajratib tahlil qilish funktsional sintaksisning asosiy vazifasiga kiradi”³².

Ikkinchi bob “**Substansial possessiv sintaksemalar paradigmaticasi**” deb nomlanadi va u qardosh bo‘lmagan tillar tizimida substansial possessiv sintaksemalarni farqlashga, qardosh bo‘lmagan ingliz va o‘zbek tillari tizimida substansial possessiv sintaksemalarning variantlarini hamda ularning izomorflik va allamorflik xususiyatlarini ochib berishga bag‘ishlanadi.

³¹ Жигадло В.Н., Иванова И.П., Иофик Л.Л. Современный английский язык. Теоретический курс грамматики. Изд. лит. на иностр. языках. – Москва: 1956. – С. 158; Современный русский язык, часть 2. Синтаксис. Под.ред. Д.Э.Розенталя, Высшая школа, Москва: 1979; Фуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. “Ўқитувчи”, Тошкент: 1987; Тожиёв Ё. Ўзбек тилида гап ва гап бўлақларининг мақоми масалаларига доир// Ўзбек тили ва адабиёти. Тошкент, № 4, 2005.

³² Мухин А.М. Функциональный синтаксис. Функциональная лексикология. Функциональная морфология. Санкт-Петербург: 2007. – С 154.

Yig'ilgan faktik materiallar bazasida qaralganda possessiv sintaksemlar ifodalanishiga ko'ra kategorial differensial sintaktik-semantik belgilardan substansial va kvalifikativ sintaksemlar qamrovida namoyon bo'ladi, lekin uchinchi kategorial belgi protsessuallik asosida possessiv sintaksema uchramaydi. Ma'lumki, substansiallik predmet, ot ifodalagan shaxs, geografik toponimlar va hokazolarni ifodalasa, kvalifikativlik narsa, predmetlar belgisi, miqdori, hajmi, rangi, tusi, sifati kabi ma'nolarni anglatadi³³.

Ingliz tili misolida qaralganda, substansial va kvalifikativ possessiv sintaksemlar asosan quyidagi qurilmalar yordamida hamda ularning variantlari ot + ot (S + S), "qaratqich kelishigidagi ot + bosh kelishikdagi ot" (Sg + S), "ot + predlog bilan kelgan ot" (S + of S) kabilar bilan ifodalanishi mumkin. Ularni bir-biridan farqlashda transformatsiya metodining turlicha usullaridan foydalanildi.

Mazkur mulohazani isbotlash uchun quyidagi misollarga e'tiborni qaratamiz:

1. *That was the last he had seen of Golz with his strange white face, his hawk eyes (JJ. 55).*

Ushbu gaplar tarkibida bosh kelishikdagi ot, qaratqich kelishigidagi ot va sifat yordamida kvalifikativ possessiv sintaksemlarning variantlari ifodalangan.

Ushbu sintaksemaning kvalifikativ kategoriya ekanligini transformatsiya metodi asosida tasdiqlash mumkin.

Birinchi gapda kvalifikativlikni ifodalagan bosh kelishikda berilgan otni kvalifikativlikning boshqa variantlari bilan almashtirish mumkin:

(1) *That was the last he had seen of Golz with his strange white face, his hawk eyes → with his hawk's eyes → his hawkish eyes.*

Keltirilgan misolda kvalifikativ possessiv sintaksemani ifodalagan sintaktik birlik *of* predlogi bilan birikmaydi, bu esa mazkur kvalifikativ sintaksemaning substansial sintaksemadan farqini ko'rsatadi:

(1) *with his hawk eyes → with his eyes of hawk → with his eyes of a hawk*

Yana shu holatni qayd etish joizki, ot faqat bosh kelishik shaklida beriladi. Ammo ushbu sintaksemaning bir varianti, ya'ni ot qaratqich kelishigi shaklida ifodalanganda faqat jonli otlar yordamida berilishi mumkin. Otlarning bosh kelishigida berilgan ushbu sintaksema holati ko'proq uchraydi. Sifat yordamida ifodalangan kvalifikativ possessiv sintaksema esa kam uchraydi.

Substansial possessiv sintaksema masalasiga nazar tashlanganda, mazkur sintaksema otning qaratqich kelishigi shakli va *of* predlogi bilan birikib kelishi orqali ifodalanadi:

2. *...as he drove and worked his master's other dog (JL, 80);*

3. *The hair of this man was long and matted (SM, 141).*

Ushbu sintaksemlarning har ikkala variantlari matnda keng qo'llanishi ko'zga tashlanadi, ammo ular turlicha leksik birliklar bazasida xarakterlanadi. Ingliz tili gap tarkibida qaratqich kelishigi (Sg) jonli otlar hamda insonlarni va tashkilotlarni ifodalovchi otlar yordamida ifodalanadi. Otning predlogli varianti (*of* S) jonli va jonsiz otlar bazasida berilishi mumkin.

³³ Чориев А. Синтаксико-семантические признаки родительного падежа в узбекском и английском языках. – Ташкент: Фан, 1990. – С. 155-176.

Ma'lum bo'lishicha, substansial sintaksemani ifodalovchi birlik o'z oldida artikl hamda olmosh yoki ad'ektiv elementlar bilan birikib kelishi bilan kvalifikativ sintakseman farqlanadi. Kvalifikativ sintaksema esa sifat yoki ravish asosida ifodalangan sintaksema bilan birikib keladi. Bu esa substansial sintakseman farqlanuvchi belgilar hisoblanadi. Kvalifikativ possessiv sintaksemani substansiallikdan farqlashning yana bir usuli shundaki, possessivlikni ifodalovchi birlikning ad'ektiv elementi tobe komponentga emas, tayanch komponentga sintaktik munosabatda bo'lishi mumkin:

4. *Cecy`s calm sleeper`s lips turned up* (JJ, 158).

Umuman, tadqiqotda tahlil qilingan misollardan S+S, Sg+S, S+of S modellar yordamida possessiv sintaksemaning ifodalanishi substansiallik yoki kvalifikativlik doirasida namoyon bo'lishi aniqlandi. M.Yu.Maskinning ta'kidlashicha³⁴, ingliz tili misolida substansial possessiv sintaksemani kvalifikativ possessiv sintakseman farqlashda sintaksomalarni ifodalovchi elementlarning formal xususiyatlariga hamda boshqa leksik birliklar bilan distributiv munosabatlariga ham e'tiborni qaratish lozim.

S.N.Ivanovning ta'kidlashicha, "O'zbek tilida qaratqich kelishigida ifodalangan ot egalik qurilmasi tarkibida predmetlik belgisini qamrab oladi"³⁵.

O'zbek tili misolida qaralganda, bu holatni A.Choriev ham qayd etadi, ammo bir ma'noni ifodalagan ot qaratqich kelishigida kategorial differentsial sintaktik-semantik belgilardan substansiallikni ifodalasa, aynan o'sha ot bosh kelishikda kvalifikativ sintaksemani aks ettirishi mumkin. *Qiyoslang: Qo'qonning boylari – Qo'qon davlatmandlari*. Bu birikmalarda *Qo'qonning*, *Qo'qon* nokategorial belgilardan possessiv va lokativ sintaksomalarni, kategorial belgilardan "*Qo'qonning*" substansiallikni, "*Qo'qon*" kvalifikativ sintaksemani anglatadi³⁶.

Biz ham bu mulohazaga qo'shilamiz va bu farqni isbotlash maqsadida qaratqich kelishigida kelgan *Qo'qonning* unsurini kishilik olmoshining qaratqich kelishik shakli bilan almashtirish transformatsiyaga tushirish mumkin, ammo bosh kelishikda kelgan *Qo'qon* sintaktik birligini kishilik olmoshi bilan almashtirib bo'lmaydi.

Qo'qonning boylari → *uning boylari*;

Qo'qon davlatmandlari ⇏ *u davlatmandlari*.

Bu borada aytish joizki, bosh kelishikda kelgan ot har doim ham kvalifikativ possessiv sintaksemani ifodalayvermaydi. Ularni farqlashda tayanch komponentga yoki distributiv munosabatga e'tibor berish lozim, deb hisoblaymiz.

Masalan: 1) *Mushrif hovlisi*. 2) *xira chiroq shu'lasida o'tirdi*.

Birinchi gapda "*Mushrif*" bosh kelishikda kelsa ham, u substansial sof possessiv sintaksemani ifodalaydi. Chunki "*Mushrif*" komponentiga *-ning* qo'shimchasini qo'shish mumkin: (1) *Mushrif hovlisi* → *Mushrifning hovlisi*.

³⁴ Маскин М.Ю. О разграничении квалификативных и субстанциальных синтаксем в современном английском языке //Лингвистические исследования, 1987. Функционально-семантические аспекты грамматики. – Москва, 1987. – С. 65

³⁵ Иванов С.Н. Родословное дерево тюрк Аб-л-газихона. Грамматический очерк (Имя и глагол. Грамматические категории). Ташкент, 1969. – С. 70.

³⁶ Чариев А. Синтаксико-семантические признаки родительного падежа в узбекском и английском языках. "Фан", Ташкент. 1990. – С. 63.

Ikkinchi gapda bosh kelishikda kelgan “*chiroq*” unsuri kvalifikativ possessiv genetik sintaksemani ifodalaydi. Bundan tashqari, birinchi gapda “*Mushrifning*” komponentini qaratqich kelishigidagi “*uning*” kishilik olmoshi bilan almashtirish mumkin. Ammo ikkinchi gap qayd etilgan transformatsiyaga tushmaydi.


(1) *Mushrifning hovlisi* → *uning hovlisi*.

(2) *Biz xira chiroq shu’lasida o’tirdik* → *Biz xira uning shu’lasida o’tirdik*.

Badiiy asarlardan yig’ilgan misollarni sintaksemalarga ajratib tahlil qilganimizda, o‘zbek tili misolida substansiallik doirasida sof possessiv, possessiv agentiv, possessiv genitiv, kvalitatif (sifat) belgisi yuklatilgan possessiv, possessiv lokativ, possessiv temporal, possessiv total, possessiv total temporal, possessiv total lokativ, possessiv total partitiv, possessiv total elektiv, possessiv total kollektiv, possessiv ob’yekt, possessiv identifikatsiyalanuvchi, possessiv ekzistentsial, possessiv modal kabi sintaksemlar aniqlandi.

Umuman olganda, tilshunoslar tomonidan ingliz va o‘zbek tillari misolida egalik kategoriyasi doirasida qaratqich (genitive) kelishigi asosida substansial possessiv va kvalifikativ possessiv sintaksemlar o‘rganilgan. Ammo ushbu possessiv sintaksemlar tilning boshqa vositalari yordamida ifodalanishi va ularning distributiv munosabatlariga yetarlicha e’tibor qaratilmagan, xususan, ular gap tarkibida yadro predikatlovchi komponent (kesim) o‘rnida *to have* fe’lining shaxsli shakli, egalik olmoshlarining bog‘lama (conjoint) va absolyut (absolute) shakllari va boshqa vositalar yordamida ifodalanishi har ikkala tilda ham qiyosiy-funksional tadqiq etilmaganligi ko‘zga tashlanadi.

